



**The life of Abu Hafs al-Nasafi and the source study analysis of the
work “al-Taysir fit-tafsir”.**

Abdulkhodiyev Dovudkhon Orifjon ugli

*First-year Master’s student in Comparative Religion at the International Islamic
Academy of Uzbekistan.*

Abstract: This article analyzes the life and scientific heritage of the 12th-century encyclopedic scholar Abu Hafs al-Nasafi and his work “al-Taysir fit-tafsir” from a source study perspective. The research highlights the author's unique methods in writing tafsir, specifically the method of interpreting verses with other verses and techniques for defending the Ahli Sunna creed. Additionally, the significance of the work in preserving the traditions of the Maturidite school of kalam and the classification of sources used therein are presented.

Key words: Abu Hafs al-Nasafi, “al-Taysir fit-tafsir”, Maturidism, source study, tafsir methods.

Abu Hafs Nasafiy hayoti va “at-Taysir fit-tafsir” asarining manbashunoslik tahlili

Abdulkhodiyev Dovudxon Orifjon o‘g‘li,

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik Akademiyasining. “Qiyosiy dinshunoslik”
mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

Anatatsiya: Ushbu maqolada XII asrning qomusiy olimi Abu Hafs an-Nasafiyning hayoti, ilmiy merosi va uning “at-Taysir fit-tafsir” asari manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda muallifning tafsir yozishdagi o‘ziga xos metodlari, xususan, oyatni oyat bilan sharhlash va Ahli sunna aqidasi himoya qilish uslublari yoritilgan. Shuningdek, asarning moturidiylik kalam maktabi an’analarini asrashdagi ahamiyati va unda qo‘llanilgan manbalar tasnifi bayon etilgan.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

kalit so‘zlar: Abu Hafs an-Nasafiy, “at-Taysir fit-tafsir”, moturidiylik, manbashunoslik, tafsir metodlari.

KIRISH

Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy (461/462–537 h.) Movarounnahr ilmiy muhitining eng yirik vakillaridan biri bo‘lib, o‘z zamonasida “Mufti as-saqalay” (ins va jin muftiysi) hamda “Imomlar imomi” kabi yuksak unvonlarga sazovor bo‘lgan. U kishi nafaqat mufassir, balki muhaddis, faqih, mutakallim va tilshunos olim sifatida 100 ga yaqin asar tasnif etgan. Olimning ilmiy kamolotida Faxrul Islom al-Bazdaviy va Abu al-Yusr al-Bazdaviy kabi 550 nafardan ortiq ustozlarning xizmati katta bo‘lgan. Shuningdek, an-Nasafiy ham “Hidoya” asari muallifi Burhonuddin al-Marg‘inoniy kabi yetuk shogirdlarni yetishtirib chiqargan.

Olimning mufassirlik salohiyati uning “at-Taysir fit-tafsir” asarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu asar o‘zining metodologik izchilligi va mo‘tadilligi bilan ajralib turadi. An-Nasafiy tafsirda asosan “Qur’onni Qur’on bilan tafsir qilish” metodiga tayanadi va oyatlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni (munosabat) mahorat bilan ochib beradi. Shuningdek, u o‘z asarida Abu Mansur al-Moturidiyning “Ta’vilot Ahlis-Sunna” asarini asosiy manba sifatida qo‘llab, moturidiylik aqidasi qat’iy himoya qiladi. Asarda Ahli sunnaga zid bo‘lgan mu’tazila, jabriya va rofiziylar kabi firqalarning qarashlariga lug‘aviy va aqliy dalillar bilan raddiyalar berilgan. Muallif murakkab ilmiy masalalarni xalqqa tushunarli bo‘lishi uchun “idjoz” (foydali muxtasarlik) metodini qo‘llagan. “at-Taysir fit-tafsir” nafaqat nazariy bilimlar, balki iymon va taqvonni yuksaltiruvchi va’z-nasihatlar majmuasi hamdir. Bugungi kunda ushbu merosni o‘rganish Movarounnahr tafsir maktabi an’analarini anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism

1. ISMI, NASABI, TARTIB YILI VA USISHI; USTOZLARI, SHOGIRDLARI,

499



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

ASARLARI VA VAFOTI

Ismi, Nasabi va Tug‘ilgan Joyi: Imom, muhaddis va buyuk alloma Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy as-Samarqandiy hijriy 461 yoki 462-yilda Nasaf (Naxshab) shahrida dunyoga kelgan. Keyinchalik u ilm markazi bo‘lgan Samarqandda yashab, ijod qilgan. Najmiddin an-Nasafiy barcha islomiy ilmlarda chuqur bilimga ega, mufassir, muhaddis, hofiz, mutakallim, faqih va adib sifatida tanilgan serqirra olimdir. Allomaning yoshligi haqida ma’lumotlar kam bo‘lsa-da, uning ilm-fanga boy muhitda voyaga yetgani va erta yoshdan ilm talabiga kirishgani ma’lum. Masalan, u taxminan yigirma yoshlarida o‘z davrining buyuk imomlari Faxrul Islom al-Bazdaviy (vaf. 482 h.) va Ismoil at-Tavhiy (vaf. 481 h.) kabi ustozlardan dars olgan. Shuningdek, u haj safariga chiqib, Bag‘dod kabi shaharlardagi ulamolar bilan ilmiy muloqotda bo‘lgan va ulardan hadis rivoyat qilgan.

Ulamolar uning ilmiy merosiga turlicha baho berganlar: As-Sam’oniyy: Uni “Imom, faqih, fozil va adabiyotni biluvchi olim” deb ta’riflagan. Garchi u an-Nasafiyning hadis jamlashdagi ayrim texnik kamchiliklarini (vahm va xatolar) qayd etgan bo‘lsa-da, uning tasnif etish va jamlashdagi mahoratini alohida e’tirof etgan[6:527].Alloma Ibn Qutlubug‘o: As-Sam’oniyyning tanqidlariga raddiya berib, insoniy xatolardan hech kim xoli emasligini ta’kidlab, an-Nasafiyning buyuk maqomini himoya qilgan.[12:220].

Abdulhay Laknaviy dedi: «U fozil, usulchi, mutakallim, mufassir, muhaddis, faqih, hofiz, tilshunos imom edi; ko‘plab bilim va xos-u omning toliq qabuli bilan mashhur imomlardan biri edi. U ins va jinni bilar edi, shuning uchun unga “Mufti as-saqalay”degan nom berilgan.

Al-Marg‘iynoniy dedi: “Abu Hafs Umar ibn Ahmad an-Nasafiyi Imomlar imomi va ummatning peshvosi”[10:1].



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Ustozlari: Alloma Najmuddin an-Nasafiy o‘z davrining yetuk ulamolaridan ta’lim olib, ilm-fanning mohiyatini chuqur egalladi. Uning ustozlari nihoyatda ko‘p bo‘lib, ularning aksariyati Islom olamida mashhur edilar. Quyida ularning ayrimlarini keltiramiz:

1. Faxrul Islom al-Bazdaviy (vaf. 482 h.): Ali ibn Muhammad nomi bilan tanilgan, Movarounnahrning buyuk imom-faqihi[4:183].
2. Abu al-Yusr al-Bazdaviy (vaf. 493 h.): Faxrul Islomning ukasi, Samarqand qozilar qozisi. U “Jozijoniyya Dori”da dars berib, hadis ilmidan saboq bergan.
3. Ahmad ibn Abdulloh as-Sabg‘iy (vaf. 526 h.): Samarqandlik taniqli imom va faqih. U ham “Jozijoniyya Dori”da mudarrislik qilgan[3:73]

Shogirdlari:Shubhasiz ilmi va zuhdi jihatidan mana shunday imom bo‘lgan kishiga odamlar turli joylardan uning ilm chashmasidan bahramand bo‘lish uchun keladilar; ayniqsa u Imom Abu Hanifa rahimahulloh mazhabida tayanchga aylangan edi. Eng kozga kuringan shogirdlaridan:

1.Uning o‘g‘li Ahmad ibn Umar, Abu Lays — “Al-Majd” laqabi bilan tanilgan. As-Sam‘oniy „Zayl“ asarida shunday deydi: Tug‘ilgan yilini so‘radim; Hijriy 507-yilda tug‘ilganman, dedi. U otasi Imom Najmiddin Umar an-Nasafiy va boshqa olimlar qo‘lida fiqh ilmini o‘rgandi; otasi uni samarqandlik olimlar va u yerga kelgan boshqa ilm ahllaridan dars olishga undagan edi. U otasidan ko‘p ilm o‘rgangan bo‘lsa-da, biroq hadis ilmiga otasi kabi katta e‘tibor qaratmagan edi. U fozil faqih va yetuk voiz edi; do‘stlariga nisbatan bag‘ri keng inson bo‘lgan. Hijriy 552-yilning safar oyida Hijozdan qaytib vataniga qarab yo‘l oldi. Qumas tomon yetib, Bistom ortidan o‘tayotganda, qal’a ahlidan bo‘lgan bir guruh yo‘lto‘sarlar yo‘lni to‘sib, karvonni taladi. Ular ko‘plab olimlar va hojilardan 70 dan ortiq kishini o‘ldirishdi; qurbon bo‘lganlar orasida Majd



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

an-Nasafiy ham bor edi — Alloh rahmat qilsin. Bu fojia hijriy 552-yil, jumadul ula oyining 27-kuni, dushanba kuni Bistom yaqinidagi Kuf degan joyda sodir bo‘ldi.[3:86].

2. Aliy ibn Abu Bakr ibn Abd al-Jalil al-Farg‘oniy al-Marg‘inyoniy — “Hidoya” asarining muallifidir. U buyuk imom, faqih, hofiz, muhaddis va mufassir bo‘lib, barcha ilmlarni o‘zida jamlagan, puxta, muhaqqiq, munozara ustasi, teran fikrli, zohid va taqvodor olim edi. Shuningdek, u o‘z ishining mohiri, fozil usulchi, adib va shoir bo‘lgan. U mashhur imomlar qo‘lida fiqh ilmini o‘rgandi. Uning ustozlari orasida “Mufti as-saqalayn” laqabi bilan tanilgan Najmiddin Abu Hafs Umar an-Nasafiy ham bor edi. Al-Marg‘inyoniy o‘z shayxlari (ustozlari) ro‘yxatini aynan uning nomi bilan boshlagan, undan keyin esa ustozining o‘g‘li Ahmad ibn Umar an-Nasafiyni zikr etgan[3:383].

3. Burhonuddin al-Kosoniy (Abu Abdulloh)

Samarqandlik mashhur faqih, o‘z zamonasining hadis hofizi va usul ilmining yetuk shayxi. U Umar an-Nasafiy hamda Abu al-Yusr al-Bazdaviydan ta‘lim olgan. Hijriy 576-yilda Bag‘dodda an-Nasafiydan hadis rivoyat qilgan[2:162].

Asarlari:An-Nasafiy ko‘plab ilm sohalarini egallagan fozil faqih va adib olim edi. U fiqh, hadis hamda tafsir yo‘nalishlarida 100 ga yaqin asar yozgan. Eng mashhurlari:

1. “At-Taysir fit-tafsir” — tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan ushbu asar o‘z turida betakror durdonadir. Muallif Zamaxshariy va Ibn Atiyya kabi buyuk mufassirlar bilan zamondosh bo‘lsa-da, ularning asarlaridan ko‘chirmasdan, o‘zining mustaqil va teran fikrlariga tayangan. Kitobda ikki asosiy maqsad ko‘zlangan: iymon va taqvoni yuksaltiruvchi va’zu nasihatlar berish hamda Qur‘on ilmlarini (lug‘at, i‘rob, tafsir) oson tushuntirish. Nomiga mos ravishda, bu asar kitobxon uchun tafsir ilmini o‘rganishni osonlashtiradi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

2. “Al-Akmal al-atval fi tafsir al-Qur’on” — bu olimning “At-Taysir” asarida ishora qilingan katta tafsiridir. Muallif ba’zi o‘rinlarda uni “Bahr ulum at-tafsir” deb ham atagan. Ibn Qutlubug‘o ham “At-Taysir” asarida ushbu yirik hajmli tafsirga havolalar mavjudligini ta’kidlagan [12:220].

3. “Al-Aqoid an-Nasafiyya” — bu puxta matn bo‘lib, ko‘plab fozillar unga e’tibor qaratgan; uni Alloma Sa’d ad-Din Mas’ud ibn Umar at-Taftazoniy (vafoti: 791 h.) sharhlagan. U dedi: «Aqoid deb nomlangan muxtasar (qisqartma) foydali durdonalarni din ustunlari va asoslari bo‘lgan fasllar ichida, nihoyatda tahqiq va tartib bilan oz ichiga olgan». Al-Alloma at-Taftazoniy sharhi— Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Eron, Afg‘oniston va vatanimiz Uzbekistondagi ko‘plab din maktablarida va misrda uquv dasturi hisoblanadi. Ulamolar uni sharhlash, izoh berish yoki xulosalash va sharh yozishga kirishganlar; Hoji Xalifa sharhlarining bir qismini zikr etgan [11:1145]. U turli islom mamlakatlarida bir necha bor nashr etilgan [13].

An-Nasafiyning vafoti va dafn etilishi: Alloma hijriy 537-yilning jumadul ula oyi 2-kuni, payshanba kechasi Samarqandda vafot etdi. Olim Samarqanddagi mashhur “Chokardiza” qabristoniga dafn etilgan. Abu Tohir as-Samarqandiyning ta’riflashicha, bu qabriston shaharning sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, aslida Shayx Zohid Ibrohim al-Mutavviyning bog‘i bo‘lgan. Qabristonning g‘arbiy tarafida “Muftiylar hovlisi” joylashgan bo‘lib, u yerda 400 nafar muftiy dafn etilgani aytiladi. Nasafiyning qabri ham aynan shu yerda, buyuk imom Abu Mansur al-Moturidiy qabri yaqinida joylashgan [13].

2. AN-NASAFIYNING “AT-TAYSIR”DAGI (metodlari)USLUBLARI

a) An-Nasafiyning naql uslubi va manbalari: Ushbu tafsir ixchamligi va maqsadga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Muallif boshqa mufassirlardan farqli o‘laroq, mavzudan chetga chiqmaydi va faqat oyat ma’nosiga xizmat qiluvchi dalillarni keltiradi.

Uning uslubida mo‘tadillik va intizom ustuvordir. Iqtibos keltirish usullari:



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

1. Tasrih (Ochiq ko‘rsatish): Manba nomi yoki olimning ismini ochiq zikr qiladi.
2. Tasrihsiz (Ishora bilan): Manba aytilmasdan, uning ma‘nosi matnga singdirib yuboriladi.

Asosiy manbalari:

1. “Ta‘vilot Ahlis-Sunna” (Abu Mansur al-Moturidiy): Eng ko‘p foydalanilgan manba. U kishini yuksak hurmat bilan “Al-Imom” deb ataydi.
2. “Latoif al-ishorot” (Al-Qushayriy): Oyatlar oxiridagi ishoratlarni bayon qilishda ushbu asardan uzluksiz naql keltirgan.
3. Al-Farro va Az-Zajjojning “Ma‘oni al-Qur‘on” asarlariga til va ma‘no masalalarida tez-tez murojaat qiladi. [15].

b) An-Nasafiyning Qur‘onni Qur‘on bilan tafsir qilish metodi: An-Nasafiy tafsirining asosiy xususiyati — oyatlarni boshqa oyatlar bilan sharhlashidir. U biror oyatni bayon qilishda unga lafziy yoki ma‘noviy jihatdan bog‘liq oyatlarni dalil qilib keltiradi. Muallif buni ifodalashda “Bu Uning so‘zi kabidir”, “Xuddi aytganidek”, “Alloh taoloning so‘zining o‘xshashi” kabi biriktiruvchi iboralardan foydalanadi. Misol: Oyat tafsiri: (الرَّسُولَ لَوْ تُسَوَّىٰ بِهِمُ الْأَرْضُ وَلَا يَؤْمِنُ الَّذِينَ كَفَرُوا وَعَصَوْا) (Niso 42-oyat) Asosiy ma‘no: An-Nasafiy fikriga ko‘ra, bu oyat kofirlarning qiyomatdagi orzusini ifodalaydi:

Tuproqqa aylanib, insonlik mas‘uliyatidan qutulish. Yer bilan yakson bo‘lib, azob va sharmandalikdan g‘oyib bo‘lish.

Tafsir uslubi: Muallif ushbu oyatni Naba surasidagi “Koshki tuproq bo‘lsam” oyati bilan bog‘lab, “Qur‘onni Qur‘on bilan tafsir qilish” metodini qo‘llaydi [14].

c) An-Nasafiyning raddiya berish metodi: Imom an-Nasafiy Ahli sunna val-jamo‘a aqidasini himoya qilishda kuchli moturidiy kalom olimi sifatida “hujjat bilan botilni rad etish” (ibtol) metodini qo‘llagan. Uning uslubi quyidagi tartibda tizimlashgan



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

1. Qur’oniy dalillarga tayanish (Istidlol): Muallif adashgan firqalarning oyatlarni noto‘g‘ri ta’vil qilishlarini fosh etadi. Oyatning asl lug‘aviy va shar’iy ma’nosini belgilab, botil da’volarning unga zidligini isbotlaydi.

2. Aqlni naqlga bo‘ysundirish: Nasafiy aqlni inkor etmagan holda, uning vazifasi vahiyini to‘g‘ri tushunish ekanini ko‘rsatadi. Mantiqsiz qarashlarni “aql qabul qilmaydi” yoki “hikmatga ziddir” kabi iboralar bilan rad etadi.

3. Muayyan firqalarga qarshi kurash: Olim o‘z tafsirida mu’tazila, jabriya, jahmiya va rafiziylar kabi oqimlarga izchil raddiyalar bergan.

Rafiziylarga berilgan raddiya: Misol, Nikohdagi ayollar soni haqidagi “Ikkitadan, uchtadan va to‘rttadan (nikohlangiz)” (Niso, 3) oyati yuzasidan rafiziylar bir vaqtda to‘qqizta ayolga uylanish mumkin degan xato fikrni ilgari surishgan. Ular oyatdagi “va” bog‘lovchisini sonlarni qo‘shish deb hisoblashgan.

An-Nasafiyning raddiyasi: Bu yerdagi “va” bog‘lovchisi jamlashni emas, balki tanlashni (badalni) anglatadi. Masalan, bir guruhga “Uyga ikkitadan, uchtadan va to‘rttadan bo‘lib kiring” deyilsa, bu 9 kishi baravar kiring degani emas, balki guruhlarga bo‘linib, turli miqdorda kirishni anglatadi. Til qoidasiga ko‘ra, bu oyat ayollar sonini to‘rttadan oshirmaslikni taqozo etadi[7, 1/112-b.].

3. “AT-TAYSIR” KITOBINING XUSUSIYATLARI

1. Ma’nolarni bayon qilishda zeriktirmaydigan darajadagi batafsil sharh. Muallif oyatdagi har bir bo‘lakning vazifasini aniq ko‘rsatib beradi.

2. Boshqa mufassirlar zikr etmagan nodir tafsirlar bilan ajralib turishi.

3. Ba’zi oyatlarni zohiriy ma’nosidan boshqa ma’noga dalil bilan burish.

4. Foydali muxtasarlik va qat’iy xulosa. Ixtisor (keraksiz itnobdan) qochib, masalaning mohiyatini bayon qiladi.

5. Tadabbur uchun oyatlar tafsirini takrorlash. Oyatning ma’nosi har gal zikr qilinganda



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

yangi bir tadabbur hosil bo‘lishi uchun takror metodini qo‘llaydi.[15].

Xulosa

XII asr Movarounnahr zaminida yetishib chiqqan qomusiy olim Abu Hafs an-Nasafiyning hayoti va uning “at-Taysir fit-tafsir” asari yuzasidan olib borilingan ushbu tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi:

1. Najmiddin an-Nasafiy shunchaki bir olim emas, balki o‘z davrining ilmiy-ma‘rifiy cho‘qqisi — “Mufti as-saqalay” darajasiga ko‘tarilgan valiy olimdir. Uning 550 nafardan ortiq ustozdan saboq olgan. Buning samarasi o‘laroq, u Burhonuddin al-Marg‘inoniy kabi olamshumul siymolarni tarbiyalagani Movarounnahr ilmiy maktabining naqadar kuchli metodlarga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

2. An-Nasafiy ushbu tafsir orqali Moturidiylik kalom maktabining haqiqiy himoyachisi sifatida namoyon bo‘ladi. U Ahli sunnaga zid bo‘lgan firqalar (mu‘tazila, jabriya, rofiziylar)ga raddiya berishda faqatgina hissiyotga emas, balki til qoidalari, mantiq va naqlga tayangan. Xususan, “istivo” sifatini ta‘vil qilishda yoki rofiziylarning ayollar soni borasidagi xato qarashlarini rad etishda olimning tilshunoslik va usul ilmidagi mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zero, Olimlar Abu al-Mu‘in Nasafiy haqida: “Agar Abu al-Mu‘in Nasafiy bo‘lmaganida, bizgacha Abu Mansur al-Moturidiyning ilmi yetib kelmas edi” deb aytishgan. Shuningdek, biz ham: “Agar Abu Hafs Nasafiy bo‘lmaganida, bizgacha Abu al-Mu‘in ilmi yetib kelmas edi”, deb aytishimiz, mubolag‘a b‘olmaydi.

3. “At-Taysir fit-tafsir” Asarini metodologik mukammalligi: Kitobning manbahunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilar ekanmiz, muallifning “iyjozi” (foydali muxtasarlik) uslubini qo‘llagani e‘tiborni tortadi. An-Nasafiy murakkab ilmiy tushunchalarni xalqqa sodda, ammo ilmiy asosda yetkazishni maqsad qilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, asarning eng kuchli jihati uning “Qur’onni Qur’on bilan tafsir qilish” metodidir. Muallif oyatlar



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

orasidagi mantiqiy va ma’naviy zanjirni — munosabat ilmini mahorat bilan qo‘llab, Qur’onning yaxlit bir butunlik ekanini ilmiy asoslab bergan.

“At-Taysir fit-tafsir” nafaqat nazariy bilimlar manbasi, balki inson ruhiyatini tarbiyalovchi, iymon va taqvoni yuksaltiruvchi va’z-nasihatlar majmuasidir. Olimning o‘z asarini “at-Taysir” (osonlashtirish) deb nomlashi ham uning o‘quvchiga bo‘lgan jonkuyarligi va ilmni tarqatishdagi fidoyiligini anglatadi.

Yakuniy xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Abu Hafis an-Nasafiyning ilmiy merosini, xususan, uning tafsiriy metodlarini o‘rganish bugungi kun magistrant va tadqiqotchilari uchun Movarounnahr tafsir maktabining asl qiyofasini anglashda poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Al-Ansob. As-Sam’oniy, Abu Sa’d. Taqdim: Abdulloh Umar al-Borudiy. Nashriyot: Dor al-Jinan. (1-jild, 404-b.)
2. Al-Favo’id al-Bahiyya fi Tarojim al-Hanafiyya. Al-Laknawiy, Muhammad Abd al-Hayy. Nashriyot: Matba’at Dor as-Sa’oda — Misr, 1324 h. (162-b.)
3. Al-Javohir al-Mudiyya fi Tabaqot al-Hanafiyya. Al-Qurayshiy, Abd al-Qodir. Nashriyot: Mir Muhammad Kutubxon — Karochi. (1-jild, 73, 86, 383, 397-b.)
4. Al-Kofiy sharh al-Bazdaviy. As-Sig’noqiy, Husomuddin. Tahqiq: Faxruddin Sayyid Muhammad Qonit. Nashriyot: Maktabat ar-Rushd. (1-jild, 183–139-b.)
5. Aqd al-Jamon fi Tarix Ahl az-Zamon. Al-Ayniy, Badruddin. Tahqiq: Muhammad Muhammad Amin. Nashriyot: Al-Hay’at al-Misriyya al-Omma lil-Kitob, 1407 h. (1987 m.). (1-jild, 325-b.)
6. At-Tahbir fil-Mu’jam al-Kabir. As-Sam’oniy, Abd al-Karim. Tahqiq: Munira Nojji Solim. Nashriyot: Riosasat Devon al-Avqof — Bag’dod, 1395 h. (1975 m.). (1-jild, 527-



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

7. at-Taysir fit-tafsir. An-Nasafiy, Imom Abu Hafs Najm ad-Din. Tahqiq: Mohir Adib Habvush. Nashriyot: Dor al-Lubob. (1-jild.112-b)
8. Fayz al-Boriy sharh Sahih al-Buxoriy. Al-Kashmiriy, Muhammad Anvar Shoh. Nashriyot: Dor al-Kutub al-Ilmiyya. (5-jild, 109-b.)
9. Hoshiyat Ibn Obidin. Ibn Obid Afandiy, Muhammad Alo ad-Din. Nashriyot: Dor al-Fikr lit-Tiboo'a van-Nashr — Bayrut, 1421 h. (2000 m.). (3-jild, 551-b.)
10. Kashf al-Asror sharh Usul al-Bazdaviy. Al-Buxoriy, Alo ad-Din. Nashriyot: Dor al-Kitob al-Islomiy. (4-jild)
11. Kashf az-Zunun an Asamil-Kutubi val-Funun. Kotib Chalabiy (Hoji Xalifa), Mustafu ibn Abdulloh. Nashriyot: Al-Musanno kutubxonasi — Bag'dod, 1941 m. (2-jild, 1145-b.)
12. Toj at-Tarajim. Ibn Qutlubug'o, Zayn ad-Din. Tahqiq: Muhammad Xayr Ramadan Yusuf. Nashriyot: Dor al-Qalam — Dimashq, 1413 h. (1992 m.). (220-b.)
13. Yusuf, Xalilulloh. “Islomda Imom Abu Hafs Umar an-Nasafiyning o'ri”. oliymahad.uz (Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti portali).
14. Al-Juhaniy, Amal bint Shulayvih; Halvoniy, Fotin bint Hasan. "أوجه تفسير القرآن بالقرآن". Majallat al-Buhuth al-Islamiyya, 92-son, 1444 h. (2022 m.)
15. Al-Lahyoniy, Oyisha Hamdon. "المناسبات عند أبي حفص النسفي ومنهجه في إيرادها من خلال". Majalla al-Qalam lil-Ulum al-Insaniyya va at-Tatbiqiyya, 9-jild, 34-son, 2022 m. DOI: <https://doi.org/10.35695/1946-000-034-001>